

YOSHLARNING AXBOROT MAKONIDA MAFKURAVIY TRANSFORMATSIYALASHUVI

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li

NamDPI 2-kurs tayanch doktoranti.

Gmail: karimovislomjon073@gmail.com Tel: +99894 268 27 75

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21208775>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tafakkuridagi o'zgarishlarning umumiy jarayonlari tahlil qilingan va xulosalangan. Axborot jamiyatining shakllanishiga retrospektiv tahlil bilan yondashib tarixiy-falsafiy jarayonlar silsilasida yoshlar qanday qilib jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lganlari, tafakkurlari rivojlangani va jamiyat hayotidagi muhim masalalarda ishtirok etganlarini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, sotsium, mafkuraviy kurash, axborot makoni, ijtimoiy prognozlar, global muammolar, dunyoqarash, avlodlar almashinuvi

Аннотация: В данной статье анализируются и обобщаются общие процессы изменений в мышлении молодежи. На основе ретроспективного анализа формирования информационного общества рассматривается, как молодые люди обретали свое место в социуме в ходе историко-философских процессов, как развивалось их мышление и как они участвовали в решении важных вопросов общественной жизни.

Ключевые слова: молодежь, социум, идеологическая борьба, информационное пространство, социальные прогнозы, глобальные проблемы, мировоззрение, смена поколений

Abstract: This article analyzes and summarizes the general processes of changes in the thinking of youth. Adopting a retrospective analysis of the formation of the information society, it examines how young people gained their place in society through historical-philosophical processes, how their mindset evolved, and how they participated in important issues of social life.

Keywords: *youth, socium, ideological struggle, information space, social forecasts, global problems, worldview, generational change*

Postmodern jamiyatda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga axborot texnologiyalarini kirib kelishi va “axborot portlashi” natijasida ko‘pchilik insonlar, ayniqsa yoshlar ijtimoiy mojallarini, hayotiy ideallarini aniqlashda qiynalishmoqda. [1] Axborotlashgan jamiyatning nazariy asoslari qay tarzda yoshlar ongida singdirilishi va manipulyatsiya qilinishiga holisona baho berish yoshlar dunyoqarashlari va uning determinant bo‘lgan axborot vositalarining umumiy manzarasini aks ettiradi. Bunda insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotini har bir millat yoki davlat misolida ko‘rib chiqmasdan asosiy qonuniyatlarga e’tibor qaratilgan. Tarixiy rivojlanish tendensiyasi yoshlarning jamiyatdagi o‘rni uzoq davrlar mobaynida asosan ishchi kuchi sifatida baholanganini va aynan axborotlashuvdagi rivojlanish ularning barcha sohalarida ildamlikka chorlaganini ko‘rsatdi.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi modellarini qiyosiy-tarixiy tahlilini ko‘rib chiqish uchun ularning dunyoqarashini oshiruvchi axborot muxitining o‘rniga baho berilar ekan, yaqin bir necha asrlargacha axborot ulashuvchi asosiy manba ta’lim tizimidan iborat bo‘lganini bilib olamiz. Shunga qaramasdan bugungi davrda ham yoshlar dunyoqarashining siyosiy, madaniy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, diniy ko‘rinishlarida shakllantiruvchi vosita sifatida ta’lim o‘z mavqeyini saqlab turmoqda. Biroq bugungi davr yoshlari ilm olish vositasi sifatida imkoniyatlari kengroq bo‘lgan ommaviy axborot vositalarini afzal ko‘rmoqdalar.

Avvalambor, yoshlarning ijtimoiylashuvida ularga taqdim etilgan ta’lim tizimi va axborot tarmoqlari harakatlantiruvchi omil bo‘lsa ham, u butkul ravishda insonlar hayotini keskin burib yubora olmaydi. Bunday rivojlanishda tafakkurdagi siljishlar eski axborot resurslarining negizida tadrijiy tarzda amalga oshib boradi va bu jarayon muttasil amalga oshuvchi jarayon bo‘lganidan muqarrar xarakterga ega. Insonlar bir xil hayot kechirish va yashash tarzidagi qaytariluvchi qoliplardan voz kechishga intiladilar. Eskinining negizida shakllangan yangicha axborot makoni

boshqa xalqlar va ijtimoiy guruxlarning intilishlarini o'zlashtirish hisobiga yangilanadi.

Ana shu yangilanishlar yoshlar tomonidan eng faol ma'qullanadi va o'zlashtiriladi. Buning sababi, yoshlarda intiluvchanlik kuchli bo'lishi va mavjud dunyoqarash qoliplarining ularga yetarlicha ta'sir ko'rsatib ulgurmaganida. Yoshlar asta-sekin ulg'ayib o'z yangi qadriyatlarini va mafkuralarini targ'ib etadilar. Bunday jarayondagi o'zgarishlar ming yillar davomida sekinlik bilan rivojlangani holda, ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatlari oshgan stixiyali xaos yuz berayotgan zamonaviy davrda vaziyatni prognozlashni qiyinlashtirmoqda. A. Jumaboyevga ko'ra, "Yoshlar virtual hayotga shunchalik kirib ketmoqdaki, milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, o'tmish avlodlardan o'tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligini bilishmaydi. [2] Nisbatan faol bo'lgan jamiyatning mafkuraviy burilishlarini nazoratda ushlab tura oluvchi guruhlar jamiyatda o'z ta'sirlarini o'tkazish va bunda turli axborot vositalaridan foydalanishni maqsad qilmoqdalar.

Ikkinchidan, insonlarning hayotiy jarayonlarida qanchalik ko'p yangiliklar va ma'lumotlar bo'lsa, hamda yetarli darajada insoniyatga yetkazilsa, odatiy rivojlanish jarayoni dunyoqarashlarning rivojlanishiga muvofiq tarzda tezlashadi. Biroq axborot makonida hajm va jadallikning o'zigina ijobiy tendensiyaning yuzga chiqarmaydi. Yoshlarni maqsadli va konstruktiv asosda ma'lum yo'nalishda insoniy intellektini yaxshilash va ma'lum bir ma'noda nazoratga olish ham zarur hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash - davr talabidir". [3]

Yangilik va axborotlarga yopiq bo'lgan jamiyat rivojlanishi keskin tanazzulga uchrashi muqarrar bo'lib qoladi. Bunga insonlarda mafkuraviy hilma-hillik va

dunyoqarashlarning turfahilligi ham cheklanishi hisobiga tafakkurda qotib qolish va pasayish kuzatilishi sabab bo'ladi. Ta'lim olishda va dunyoning boshqa hududlari bilan integratsiyalashuvda cheklanish bo'lgan Avstraliya, Amerika, Afrikaning mahalliy xalqlarining jamiyat taraqqiyotida buni kuzatamiz. Yaqqol tarzda jamiyatning global axborot muhitidan uzoqlashtirilishi Yaponiya va Xitoy davlatlarining "yopiq eshiklar siyosati" yuritishlari davomida jamiyatda dogmatizm mustahkamlanib, taraqqiyotning umumiy jarayonlaridan yiroqlashgan XVI-XVII asrlar ham ko'rsatadi.

Boshqa jihatiga e'tibor qaratilsa, hajm va axborot vositalari turlari ortib borishi har doim ham sifatning ortishini kafolatlamaydi. Bunga eng so'nggi davrdagi axborotlashuv taraqqiyoti davomida dunyoning ko'p jihatlarida bog'langaniga qaramasdan yoshlarning tafakkuriga ta'sir o'tkazuvchi siyosiy-ijtimoiy va boshqa faktorlar ham salmoqli ta'sir ko'rsatishi bilan e'tibor qaratish mumkin. Bugungi Xitoy axborotlashtirish siyosati qattiq nazorat qilinsa ham va o'z ijtimoiy tarmoqlariga ustuvorlik bersa ham ta'lim siyosatida talabchanlik orqali natijadorlikka erishilayotgani mahalliy darajada ham jamiyatni axborotlashtirishda sezilarli rivojlanishni ta'minladi.

Uchinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishi davomida yoshlar dunyoqarashi rivojlantirilishga ehtiyoji bor insonlar sifatida ko'rilgan va ularning asosiy vazifasi o'rnatilgan qoidalar va mafkuraga og'ishmay ergashish bo'lgan bo'lsa, axborotlashuv avj olgan XIX-XXI asrlarda mislsiz darajada jamiyatning faol qatlamiga ham aylandi. "Agar yoshlar, - deb yozadi Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida, - maishatga o'rganib, qonunga zid ravishda dilxushlik qilib va rohatlanib yursalar, sohibi qonunlar ularni tuzatishlari qiyin, ammo rohatlanishlarini qonunga bo'ysundirishlari zarur, balog'atga yetgan yosh yigitlar esa bu shart-sharoitlarga ko'nikishlari va undan foydalanishlari kerak" [4].

To'rtinchidan, jamiyatlarning muayyan sohadagi qadriyatlari ma'lum davrda unutilishi ham, avlodlar almashinuvining boshqa bir bosqichida esa, qayta takrorlanishi ham mumkin. Zamonaviy axborot asrida bunday ehtimollar yanada

ortishi kuzatiladi. Shuningdek, mafkuraviy an'analarining tiklanishi avvalgi davrdagi bilan aynan bir xilda qaytarilmasdan yangi avlodda yuqori darajada o'zlashtirilishi va takrorlanishi mumkin. Yoshlar siyosiy tafakkuridagi qadriyatlarda ham bu kuzatiladi. Antik dunyo davridagi tartibotlar va taraqqiyot qonuniyatlari keyingi davrlarda ham davom etgan va muntazam ravishda sistemalashib mohiyatan isloh qilinishda davom etgan.

Misol tariqasida, Yunonistonda paydo bo'lgan xalq xokimiyatchiligi an'analaridagi yuridik normalarda belgilangan gender tengligi, jamiyat tabaqalanishlari va jazo choralari bugungi davrda anglanadigan demokratiyadan sezilarli farqlanishlarga ega. Bunda ommaviy tafakkurning o'zgarib borishi spiralsimon taraqqiyot yo'lidan borib, o'rta asrlarda feodalizm natijasida demokratiya insoniyat siyosiy hayotidan uzilib qolgan bo'lsa-da, keyinchalik yana demokratiya davlatlarning siyosiy yo'li sifatida faol harakatga aylandi. Biroq yangi avlod qo'llab-quvvatlaydigan siyosiy mafkura antik davrdagisi bilan o'xshash va qarama-qarshi aspektlarni nazarda tutadi.

Beshinchidan, yoshlarning har sohadagi faol harakatlarini qo'llab-quvvatlashda bugungi davrda xalqaro tashkilotlar va zamonaviy yuridik tizimlarning insonparvarlik tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Inson huquqlarini ta'minlovchi shunday uyushmalar yoshlarning turli sohadagi yondashuvlari va tashabbuslarini ham ifodalamoqda va amaliyotga joriy etmoqda. Global isish, ishsizlik muammolari, oilaviy ajrimlar, abort, erta nikoh, bolalarning ekspluatatsiyasi kabi zamonaviy davr muammolarini jamoatchilikka olib chiqishda yoshlar ham faollik ko'rsatmoqda. Zero, ushbu muammolar bilan yuzlashishning muqarrarlashib borishi yoshlarni tashabbuskorlikka undamoqda. N.Qodirov shunday deydi: "Boshqacha qilib aytganda, "xar bir davr va avlod o'ziga xos madaniy me'ros yaratadi." [5]

Oltinchidan, Tashabbuskorlik faoliyatining qizg'in nuqtalaridan biri ham ommaviy axborot vositalari bo'ymoqda. Shuni e'tiborga olish lozimki yoshlar nuqtayi nazarini shakllantiruvchi axborot makoni faqatgina jurnalistika yoki internet

platformalari, teleradio yangiliklaridangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy tarmoqlar, media-kontentlar va raqamli resurslarning butun bir tizimini qamrab oladi.

Xulosa. Zamonaviy axborot makoni yoshlar dunyoqarashi va mafkurasini transformatsiyalashda eng asosiy determinant omil hisoblanadi. Axborot oqimlarining shiddatli va global xarakterga ega ekanligi yoshlar qatlamini jamiyatning dinamik, ommaviy muammolarga nisbatan tashabbuskor guruhiga aylantirish bilan birga, ularning ongini turli mafkuraviy manipulyatsiyalar ob'ektiga ham aylantirmoqda. Tarixiy tajriba ochiqlik va ongli nazorat muvozanati saqlangan jamiyatlar yuksala olishini ko'rsatadi. Shu bois, raqamli axborot asrida yoshlarning konstruktiv ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash va media-madaniyatini oshirish milliy taraqqiyot barqarorligini ta'minlashning muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эмелин В. А. Информационные технологии в контексте постмодернистской философии. / Дисс. на соискании ученой степени кандидата философских наук, Москва 1999, - С. 164
2. Жумабоев А. Глобаллашув даврида миллим маънавиятимизга карши каратилган тахдидлар // “Маънавий тахдидларга карши курашиш механизмларини такомиллаштириш — хавфсизликни таъминлаш омили сифатида” мавзусидаги республика илмий-амалий конф. матер, туп. -Тошкент: 20 ноябрь 2019 йил. -Б.8.
3. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 272.
4. Фозил одамлар шахри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 30 б.
5. Қодиров Н.М. Ўзбекистон ёшларида ахборот маданиятини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. б.13